

"Yoshlar daftari"ga  
murojaatlar statistikasi

Jami arizalar:  
141 717

Rad etilgan:  
39 767

Qabul qilingan:  
95 454

Ko'rib chiqilmoqda:  
6 496

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 13 (16466)  
2022-yil, 19-mart  
shanba

[/yoshlarovoziuz](#)


[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Qaynoq hayot** Faol yetakchilar BAA hamda  
3-bet Turkiyada tahsil oladi


**Mahallada yoshlar yetakchisi** Bular hammasi real  
5-bet hayotda bo'lmoqda

**Talabalar hayoti** 150 talaba ishga  
7-bet yo'llanma oldi



**5** BOSQICHLI  
"BESH TASHABBUS"  
OLIMPIADASIGA  
**start!**

1-APRELDAN



batafsil

4-bet →

## PSIXOLOGIK MASLAHATGA MUHTOJ YOSHLARGA SUBSIDIYA AJRATILADI

1

### PSIXOLOGIK MASLAHATGA MUHTOJ YOSHLAR GURUHI

- Ruhiyatida buzilish kuzatilgan yoshlar;
- tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan yoshlar;
- odam savdosi jabrdiydalari;
- jinoyat sodir etishga moyil yoshlar;
- profilaktik hisobda turuvchi yoshlar;
- ajrim yoqasiga kelib qolgan yoshlar (yosh oilalar);
- nosog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitda voyaga yetgan, psixologik maslahatga muhtoj muomalaga layoqatli yoshlar.

2

### SUBSIDIYA 18-30-YOSHDAGI MUROJAATCHILARGA AJRATILADI.

3

### MUROJAAT QILISH TARTIBI

"Yoshlar daftari"ga kiritilishini so'rab, to'g'ridan-to'g'ri sektor rahbariga murojaat qilish yoki "Yoshlar daftari" elektron platformasi orqali (onlayn).



4

### PSIXOLOGIK YORDAM OLIISH TO'G'RIDAGI MUROJAATNI KO'RIB CHIQUISH

#### I bosqich.

Sektor rahbari 3 kun muddat ichida quyidagilarni o'rganadi va "Yoshlar daftari" jamg'armasi Vasiylik kengashiga tegishli xulosa taqdim etadi:

- Arizachining "Yoshlar daftari"ga kiritilganligini;
- Taqdim etilgan hujjatlarni.

#### II bosqich.

Vasiylik Kengashi tomonidan tegishli hujjatlar 12 kun muddat ichida ko'rib chiqiladi va natijasi bo'yicha "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ko'mak berish yoki rad etish to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qilinadi.

"Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ko'mak berish rad etilgan taqdirda sektorlar shtablari kotiblari Vasiylik kengashi qarori qabul qilingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida bu haqda arizachini yozma shaklda xabardor qiladi.

5

### PUL QANDAY KO'RINISHDA TO'LAB BERILADI?

Psixologik xizmat ko'rsatish xarajatlari ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkiloti yoki nodavlat ta'lim tashkiloti hisob raqamiga mablag' o'tkazish yo'li bilan beriladi.



6

### PSIXOLOGIK HOLATI TIKLANGAN YOSHLAR KEYINCHALIK HAM NAZORAT OSTIDA TURADIMI?

Psixologik maslahatga muhtoj yoshlarga Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish respublika markazi; Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazi; Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi, Respublika ijtimoiy moslashuv markazi; ta'lim muassasalarining malakali amaliyotchi-psixologlari tomonidan psixologik maslahatlar berib boriladi.

7

### SUBSIDIYA OLIISH UCHUN TALAB QILINADIGAN HUJJATLAR

- "Yoshlar daftari" jamg'armasining Vasiylik kengashi raisi nomiga ariza;
- Ixtisoslashgan ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish muassasalari ma'lumotnomasi (agar mavjud bo'lsa);
- Pulli psixologik xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkiloti yoki nodavlat ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma.

## "FAXRIYLAR KENGASHI" TASHKIL ETILDI




Yoshlar ishlari agentligi huzurida "Faxriylar kengashi" tashkil etildi. 16-mart kuni kengashning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda vazirlik va diplomatik korpusning 60 nafardan ziyod nafaqadagi vakillari, elchilar qatnashdi. Tarkibda yoshlar

tashkilotlarida ko'p yillar mehnat qilgan faxriylar ham bor.

"Faxriylar kengashi" mahallalarda yoshlar bilan ishlash, ularning bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga ko'maklashadi. "Bir nuroniyga 10 nafar yosh" tizimi yo'lga qo'yiladi.






## FAOL YETAKCHILAR BAA HAMDA TURKIYADA TAHSIL OLADI

Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev yetakchilar bilan qisqa savol-javoblar olib bordi. Yoshlar yetakchilarga katta talablar qo'yildi va ular uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilishi ta'kidlandi. Ushbu ishlarining ijrosi viloyat hokimligi, prokuratura, ichki ishlar, sog'liqni saqlash vazirligi zimmlariga yuklatildi.

Respublika ishchi guruhi a'zolari yetakchilarning fikrlari hamda takliflarini tinglash davomida yoshlarning bo'sh vaqti hamda bandligini ta'minlash, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'nalishida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish va yig'it-qizlarni munosib taqdirlash borasida kelishib oldi. Har bir yoshlar yetakchisi "Navro'z" bayrami arafasida o'z mahallasida "Zakovat" intellektual o'yini, "Kitobxon oila", "Yosh kitobxon" tanlovlari, "QVZ" hamda sport musobaqalari o'tkazish borasida aniq va'dalar berdi. Mazkur musobaqalar shu taxlit davom etishi, tuman, viloyat hamda respublika bosqichlari tashkil etilishi qayd etib o'tildi.

Tanlovlar uchun respublika ishchi guruhi tomonidan har bir tumanidagi bittadan mahalla yoshlar yetakchisi namuna qilib ko'rsatildi. Ular tashkil etadigan musobaqa g'oliblariga taqdim etiladigan sovg'alar ham havas qilari darajada. Eng so'nggi modeldagi televizor, IPHONE, notebook, kitoblar jamlanmasi hamda yurtimizning eng mashhur va navqiron shaharlari - Samarqand, Buxoro va Shahrisabzga sayohat uchun yo'llanma shular jumlasidan.




Tadbir davomida yetakchilar ham "quruq" qolishmadi. Eng yaxshi natija qayd etgan va o'z hududida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirgan 3 nafar yoshlar yetakchisi yil oxirida BAA va Turkiya davlatlarida joylashgan dunyodagi eng nufuzli ta'lim markazi "Yoshlar yetakchilarini tayyorlash instituti"ga o'qishga yuborilishi alohida ta'kidlandi.

Yoshlarning ham takliflari eshitildi. Jumladan, yoshlar yetakchilari uchun "bir haftada bir kitob" loyihasi taklifi berildi va amalga oshirilishi belgilandi. Bu ishni amalga oshirish uchun mutasaddilar barcha sharoitlarni yaratib berishga va'da berdi. Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamda Ma'naviyat markazi 500 tadan kitob taqdim etadigan bo'ldi.

Tadbir yakunida yoshlar yetakchilari fikri bilan qiziqdik. Yetakchilarning barchasi hozirda amalga oshirilayotgan ishlardan mamnunligini e'tirof etdi.

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV**


**YONINGIZDAMIZ!**



Sirdaryo tumani mahallalaridagi yoshlar yetakchilari va mahalla yoshlaridan iborat ko'ngilli guruh Baxt shahrining "Xazina" mahallasida hashar tashkil etdi.

Ular kuchli yomg'ir oqibatida xonadonlarda to'planib qolgan suvlarni suv tortuvchi nasoslar va qo'l mehnati yordamida chiqarib tashlashdi.





## BESH BOSQICHLI "5 TASHABBUS" OLIMPIADASI



1 BOSQICH 2 BOSQICH 3 BOSQICH 4 BOSQICH 5 BOSQICH

O'TKAZILADIGAN TADBIRLAR	MAHALLA	SEKTOR	TUMAN(SHAHAR)	HUDDIY	RESPUBLIKA
"YOSHLAR OVOZI" TANLOVI	○ 1-5 APREL	○ 6-10 APREL	○ 11-16 APREL	○ 18-30 APREL	○ 10-15 MAY
FUTBOL, MINI - FUTBOL, VOLEYBOL, YENGIL ATLETIKA, STRITBOL, SHAXMAT VA SHASHKA, STOL TENNIS VA "STREET WORKOUT" CHEMPIONATI	○ 7-16 APREL	○ 17-26 APREL	○ 28-APREL - 7-MAY	○ 10-24 MAY	○ 10-20 IYUN
KIBERSPORT MUSOBAQASI	○ 7-16 APREL	○ 17-26 APREL	○ 28-APREL - 7-MAY	○ 10-24 MAY	○ 10-20 IYUN
"MUSHOIRA" TANLOVI	○ 5-20 APREL	○ 21-30 APREL	○ 2-7 MAY	○ 1-15 IYUN	○ 21-24 IYUN
"YOSH KITOBXON OILA" TANLOVI	○ 29-30 APREL	○ 1-10 MAY	○ 15-MAY	○ 1-10 IYUN	○ 22-23 IYUN
"ZUKKO KITOBXON" INTELEKTUAL O'YINI	○ 25-APREL	○ 13-MAY	○ 26-MAY	○ 10-IYUN	○ 25-IYUN
"ZAKOVAT" INTELEKTUAL O'YINI	○ 1-20 APREL	○ 22-30 APREL	○ 1-10 MAY	○ 15-30 MAY	○ 1-20 IYUN
"QUVNOQLAR VA ZUKKOLAR" TANLOVI	○ 26-APREL	○ 4-MAY	○ 14-MAY	○ 30-MAY	○ 25-IYUN



# 5

BOSQICHLI  
"BESH TASHABBUS"  
OLIMPIADASI

Yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanish bugungi kunning ustuvor talablaridan biridir. Yoshlar uchun ishlab chiqilayotgan loyihalar ham yaratilayotgan imkoniyatlarning bir bo'lagi desak yangilishmaymiz.

Jumladan, joriy yil 1-apreldan besh bosqichli "Besh tashabbus" olimpiadasi start oladi. Loyihaning asosiy maqsadi yoshlarning turli sohadagi iqtidori, iste'dodi va bilimlarini yuzaga chiqarishdan iboratdir. Loyiha 8 yo'nalishdan iborat.

- "Yoshlar ovozi" tanlovi;
- Futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika, stritbol, shaxmat va shashka, stol tennis va "Street workout" chempionati;
- Kibersport musobaqasi;
- "Mushoira" ijodiy tanlovi;
- "Yosh kitobxon oila" tanlovi;
- "Zukko kitobxon" intellektual o'yni;
- "Zakovat" intellektual turniri;
- "Quvnoqlar va zukkolar" musobaqasi.

Barcha yo'nalishlar bo'yicha saralash bahslari 5 bosqichda bo'lib o'tadi. Musobaqalarda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan barcha toifadagi yoshlar ishtirok etishi mumkin. G'olib va sovrindorlarni qator imtiyoz va qimmatbaho sovg'alar kutmoqda!

Tanlov va musobaqalar belgilangan nizom asosida o'tkaziladi.



# 1999

## IMKONIYAT

25 YOSH DAN OSHMAGAN XODIMLARNI YOLLAGAN ISH BERUVCHILARGA SOLIQ IMTIYOZLARI BERILADI.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son farmoniga binoan 25 yoshdan oshmagan xodimlarni yollagan ish beruvchilarga soliq imtiyozlari beriladi. Ya'ni 2023-yil 1-yanvargacha qadar to'langan soliq summasi davlat byudjetidan to'liq qaytariladi.

Buning uchun:

– soliq summasi qoplab berilishi so'ralayotgan hisobot oyida xodim 25 yoshdan oshmagan bo'lishi;

– 6 oy davomida mehnat faoliyatini amalga oshirgan bo'lishi;

– ijtimoiy soliq uzluksiz to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (elektron qayd) mavjud bo'lishi lozim.

Ish beruvchining arizasi 5 ish kuni mobaynida avtomatlashtirilgan dastur yordamida o'rganiladi. Ariza qabul qilingan yoki qilinmagani haqidagi xabar soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga jo'natiladi.

Ariza qabul qilingandan so'ng qoplab beriladigan soliq summasi ish beruvchining bankdagi hisob varag'iga o'tkaziladi.

# BULAR HAMMASI REAL HAYOTDA BO'LMOQDA

**Rustamjon MANNOPOV,**  
Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani-  
dagi "Navbahor" mahallasi yoshlar ye-  
takchisi



bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun haftaning har chorshanba kuni mahalladagi 10 ta ko'cha o'rtasida "Yosh kitobxon" va "Kitobxon oila" tadbirlari tashkil etilmoqda.

Har kuni soat 17:00 dan 23:00 ga qadar mahallamiz yoshlari ishtirokida hududimizdagi 43-maktabning sport zalida basketbol, voleybol, stol tennis, futbol o'yinlari o'tkazilyapti.

Mahalladagi 10 ta ko'cha yoshlaridan alohida jamoalar tuzilib, ular o'rtasida futbol bo'yicha "Tuman hokimi kubogi" musobaqasi o'tkazildi. G'olib jamoa a'zolari velosiped bilan taqdirlandi.

Mahallamiz xotin-qizlari o'rtasida voleybol bo'yicha "tuman prokurori kubogi" tashkil etildi. G'oliblar maishiy texnika buyumlari va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

”

HUDUDIMIZDA  
IT MARKAZ, SARTAROSHXONA,  
CHEVARXONA, "BOOK  
CAFE", STRITBOL VA "STREET  
WORKOUT" MAYDONCHALARI  
FOYDALANISHGA  
TOPSHIRILDI.



**Y**oshlarga imkoniyatlar juda ko'p. Menga esa ikki karraga ko'p desam bo'ladi. Talaba bo'lishimga qaramay, tengdoshlarimning qiziqishlarini o'rganib, ularning bandligini ta'minlashdek mas'uliyatni menga ishonib topshirishdi.

5000 kishidan iborat mahallamiz ahlining 2224 nafarini yoshlar tashkil etadi. Shundan 1039 nafari 16-30 yoshda. Xatlovdan o'tkazish jaroyonida bu yoshlarning 9 nafari ishsiz ekani aniqlandi. Ularni biror mehnat bilan band qilib, daromad olishlari uchun chora qidirishda hokimning mahalladagi yordamchisi ko'maklashmoqda. 3 nafar ishsiz yoshga subsidiya asosida 1 sotixdan issiqxonona qurib berdik. Yana biriga subsidiya asosida dehqonchilikda foydalanish uchun motokultivator olib berdik. Endi 2 nafar yoshga subsidiya asosida issiqxonona qurish, 1 nafariga motokultivator berish harakatidamiz.

Mahalla guzarida san'atga ishtiyoqi baland yoshlar uchun haftaning har kuni musiqa to'garaklari, seshanba va payshanba kunlari zarozlik, chorshanba

va shanba kunlari ingliz tili, juma va shanba kunlari matematika to'garaklari bepul tashkil etildi.

Hududimizda tuman hokimi tashabbusi bilan IT markaz, sartaroshxonona, chevarxonona, "Book cafe", stritbol va "street workout" maydonchalari foydalanishga topshirildi. Hozir bo'sh vaqti bo'lgan ko'pchilik yoshlarimizni shu yerdan topish mumkin.

Ayniqsa, IT markaz yoshlar og'irini yengillatadi. Sababi, ilgari yoshlar kompyuter savodxonligini oshirish uchun tuman markaziga borib kelardi. Endi ular uchun markazda kiber sport, dasturlash, kompyuter savodxonligi bo'yicha bepul to'garaklar ishlayapti.


Yaqinda foydalanishga topshirilgan sartaroshxonona na faqat yoshlar, balki butun mahalla ahliga xizmat ko'rsatyapti. Sartaroshga ishsiz yoshlardan birini "ustoz-shogird" an'anasi asosida shogirdlikka birlashtirib, bandligini ta'minladik.

"Book cafe"da 1000 dan ziyod kitob jamlandi. Yoshlarning

"Tuman IIB boshlig'i kubogi"da "Yosh kitobxon" kuch sinashdi. Shu orqali yoshlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishga erishdik. 1-o'rinni olgan yoshga televizor, 2-3-o'rin sohiblariga elektropech va qolgan ishtirokchilarga kitoblar jamlanmasi berildi.

"Mening mahallamda jinoyat sodir etilmaydi" shiori ostida jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida 10 nafar yoshdan iborat "Qalqon" guruhi shakllantirildi. Yoshlarni sport, hashar va boshqa tadbirlarga jalb etishda "Qalqon" guruhi a'zolari hamda "Navbahor yoshlari" guruhi (1030 nafar a'zosi bor) katta yordam bermoqda.

**Husnida  
ABDUMU'LALIPOVA:**



- Men 43-maktabning 11-sinfida o'qiyman. Dugonalarim Madina, Marjona, Feruza bilan tikuvchilikni o'rganishni istab yurgandik. Hozir har kuni darsdan keyin mahalla guzaridagi chevarxononaga kelib, ustozimiz Manzura opadan tekinga hunar o'rganyapmiz. Kelinlar sarpolari, erkaklar uchun sport kiyimlari tikyapmiz. Ishimiz orqasidan oz bo'lsa-da, kunlik tushum ham bor.


To'g'risi, tikuvchilikni tekinga o'rganishni, yana pul ham ishlashni tasavvur ham qilolmasdim. Dugonalarimiz ham bizga havas qiladi.

**Rustamjon  
TOSHMATOV:**

- Men mahalladagi "Pasangi" ko'chasida yashayman. Yoshlar yetakchisi "Keling, sizni haydovchilik guvoynomasi olishingiz uchun o'qishga yuboramiz. Pulini subsidiya asosida to'lab beramiz. Keyin haydovchilik qilishingiz mumkin", dedi. Quloqlarimga ishongim kelmaydi... Bunday e'tibor, imkoniyatdan foydalanib, kelgusida jamiyatimiz rivoji uchun o'z hissamni qo'shaman!

**Oyzoda  
QO'CHQOROVA:**

- Ancha paytdan beri ish qidirib yurgandim. Yoshlarni xatlovdan o'tkazayotgan paytda Rustamjon menga tez orada yordam berishini aytdi. Oradan ko'p o'tmay subsidiya asosida issiqxonona qurib berildi. Hozir dehqonchilik bilan shug'ullanyapman.



# NAVRO'Z MUBORAK!

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar  
ishlari agentligining Surxondar'yo  
viloyati boshqarmasi jamoasi

Aziz O'zbekiston yoshlari,  
sizlarni yurtimizda keng  
nishonlanayotgan Navro'z  
umumxalq bayrami bilan  
chin qalbdan muborakbod  
etamiz!

Zamonaviy bilimlarni egallashingiz,  
ezgu tashabbus va g'oyalaringizni  
qo'llab-quvvatlash, orzularingizni  
ro'yobga chiqarishdek sharaflil ishlarda  
sizlarga yelkadosh bo'lish bizga doim  
fخر bag'ishlaydi.




**Mamlakat taraqqiyoti o'z sohasining yetuk mutaxassis bo'lgan kadrlarga bog'liq. Rivojlanish bosqichini samarali bosib o'tgan mamlakatlarning 64 foizi inson kapitali sifati, aholi tomonidan ishlab chiqarish jarayoni va kundalik hayotda samarali yechimlarni topish uchun to'plangan bilim va ko'nikmalarga bog'liq bo'lgan.**

Bunda uzluksiz ta'limning yakuniy bosqichi bo'lgan oliy ta'lim tizimi muhim ahamiyatga ega. So'nggi besh yilda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalari soni hamda qamrov darajasi uch barobar oshdi. Hozir oliy o'quv yurtlarimizda 510 ming nafar talaba kunduzgi, 300 mingdan ortiq talaba esa sirtqi va kechki ta'limda tahsil olmoqda. Shundan 7,5 mingi chin yetim yoki nogiron, 4,5 mingi turli "daftar"larga kiritilgan talabalaridir.

faqatgina sifatli ta'lim berish bilangina inson kapitalini rivojlantirib bo'lmaydi. Talabalar o'qishi jarayonida har soniyada o'zgarib borayotgan sohalarda taraqqiyoti va jamiyatdagi yondashuvlar bilan hamohang bo'lib, bevosita ishlab chiqarish amaliyotida ham ishlashi lozim.

Shu bois oliy o'quv yurtlari talabalari bandligini ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan davlatimiz rahbari boshchiligidagi video-

## ENDI TALABALAR HAM O'QIB, HAM ISHLASA BO'LADI



**Muzafara ABDIYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Albatta, oliy o'quv yurtlari soni va qamrovini oshirish borasidagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish, OTMlar sonini 200 taga, shundan 10 ta salohiyatli OTMlarni QS va THE xalqaro reytinglariga kiritish niyat qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad aniq - yetuk zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega kadrlar soni va sifatini oshirish.

Ammo bugungi dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki,

sektor yig'ilishida ishlash istagi bo'lgan talabalarga ta'limdan uzilmagan holda ishlash imkoniyatini yaratib berish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizdagi soha va tarmoqlar kesimida talabalar ishlashi mumkin bo'lgan 105 mingta vakant ish o'rnini mavjud. Jumladan, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohasida - 22 mingtadan, sanoatda - 17 ming, sog'liqni saqlashda - 9 ming, qurilish va qishloq xo'jaligida - 6 mingtadan, moliya sohasida - 3 ming, aloqa va IT sohasida - 2,5 mingta ish o'rinlari mavjud. Shuningdek, rektorlar oliyoghlarning

yo'nalishiga qarab, aholi va tadbirkorlarga pullik xizmatlar ko'rsatib, 5 ming nafar talabaga qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Bu esa minglab to'lov shartnomasi asosida o'qib ta'lim olish imkoniyati yo'q yoshlarimizga o'zlari qiziqqan soha bo'yicha oliy ta'lim olish imkoniyatini yaratib beradi. Shuningdek, ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimiz nafaqat nazariy bilim va ko'nikmaga, shu bilan birga, amaliy tajribaga ham ega bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Yig'ilishda yuqoridagi kabi imkoniyatlardan unumli foydalanishda, mutasaddilarga ishlashga ehtiyoji bor talaba-

larga yordam berib, ularning bandligini ta'minlash vazifasi yuklatildi. Xususan, bu ishlarni tizimli tashkil etish uchun Bosh vazir rahbarligida respublika komissiyasi, viloyat hokimlari boshchiligidagi esa hududlarda shunday komissiyalar tashkil etiladi. Komissiya viloyat hokimlari va rektorlar bilan birga vakant o'rinlarni tahlil qilib, har bir viloyat bo'yicha birinchi, ikkinchi va uchinchi kurs talabalarining kamida 30-40 foizini ishga joylash choralari ko'radi. Bundan tashqari, bitiruvchi kurslar talabalarining kelgusidagi ish joyini belgilab oladi va ularni haq to'lanadigan 3-4 oylik stajirovkaga yuboradi.

Davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtlaridagi bo'sh xona va inshootlarni talabalarga bepul ajratish orqali ularda pulli kurslar, to'garaklar va boshqa xizmatlar hamda ishlab chiqarishni tashkil etish orqali ish o'rinlari yaratish bo'yicha ham mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

“

**BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDAGI SOHA VA TARMOQLAR KESIMIDA TALABALAR ISHLASHI MUMKIN BO'LGAN 105 MINGTA VAKANT ISH O'RNINI MAVJUD.**

## TALABA ISHGA YO'LLANMA OLDI

Toshkent shahridagi Yodju texnika institutida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun an'anaviy bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi - "YIT Job Fair - 2022" tashkil qilindi. Yarmarkada mamlakatimizda ko'zga ko'ringan 50 ga yaqin yirik kompaniya va tashkilot ishtirok etdi.

Yarmarkada ish beruvchi kompaniya va tashkilotlarning taqdimotlari, talabalarining ish beruvchilar bilan suhbatlari, bo'sh ish o'rinlari uchun dastlabki saralash jarayonlari bo'lib o'tdi. 1000 ga yaqin talaba ishtirok etib, ulardan 150 nafari ishga joylashish va stajirovka o'tash uchun yo'llanma oldi.

« world  
byees 2 »  
nuclear engineering



O'ZA fotomuxbiri  
**Nosirjon HAYDAROV**  
olgan suratlardir.

150

"Men, Shavkatjon Axtamov Samarqand davlat universitetining 3-bosqich talabasiman. 2021 yilga qadar temiryo'l sohasida faoliyat yuritib edim. Sohaga qiziqmaganim bois yangi, zamonaviy kasblardan birini o'rganishga ehtiyojim bor edi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali "Najot Ta'lim" markazining SMM yo'nalishi uchun e'lon qilingan grantiga ko'zim tushdi. Bu men uchun ajoyib imkoniyat edi. E'lon qilingan grant uchun ro'yxatdan o'tib, ikki bosqichli saralashdan so'ng o'qishga muvaffaqiyatli qabul qilindim.

"Najot Ta'lim"da SMM yo'nalishini a'lo daraja bilan bitirishimdan avval bir vaqtlar o'zim ashaddiy muxlisi bo'lgan "Osmondagi bolalar" loyihasining koordinatori sifatida ishga qabul qilindim va hozirgacha ushbu loyihada faoliyat yuritib kelmoqdaman. Ishimga tirishqoqlik bilan yondashaman va bu loyihada ishlash menga juda yoqadi. Grant ajratib, hayotimni tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan "Najot Ta'lim" markaziga va uning asoschisi Temurbek Adhamovga chuqur minnatdorchilik bildiram.

Ma'lumot o'rinda "Najot Ta'lim" markazi Toshkent shahridagi eng nufuzli IT o'quv markazlaridan biri hisoblanib, unga 2018-yilda Temurbek Adhamov tomonidan asos solingan. Hozirda "Najot Ta'lim"da uchta: marketing, dizayn va dasturlash yo'nalishlari mavjud bo'lib, bir vaqtning o'zida 3000 ga yaqin o'quvchilarga ta'lim bera oladi.

Hozirga qadar "Najot Ta'lim" markazini bitirgan o'quvchilarning 2000 dan ortig'i o'z ish faoliyatini boshlagan. Bundan tashqari, markaz tomonidan doimiy tarzda boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan, imkoniyati cheklangan, obodonlashtirish xodimlarining farzandi bo'lgan insonlar uchun "Imkon", "Kelajak yoshlari" loyihalari va boshqa shu kabi bepul grantlar e'lon qilinib boradi.

"Najot Ta'lim" tijoriy loyihalaridan tashqari, yoshlarni ilmga rag'batlantiruvchi, jamiyatdagi muammo va kamchiliklarga yechim beruvchi "Osmondagi bolalar", "Alohida mavzu" kabi ijtimoiy loyihalarga ham asos solgan va bu orqali millionlab yoshlarni ilmga targ'ib qilmoqda. Kelgusida markaz faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida boshqa viloyatlarda ham fillallar ochishni rejalashtirgan va bu orqali millionlab o'quvchilarga ilm berishni maqsad qilgan.

## "Najot Ta'lim" – ilm va tajriba ulashamiz!

☎ 71 200 11 23

🌐 najottalim.uz

📧 📷 📺 📱 📧 📧 @najottalim

### YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Iqbol PARDAYEVA**

Musahihilar:  
**Shahribonu RAHMATOVA,**  
**Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 16 dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tarildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharaq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-355, Adadi – 10600. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6